

**OILADA FARZAND TARBIYASINI SHAKLLANTIRISH
JARAYONIDA MILLIY URF – ODATLAR, AN’ANALAR
VA QADRIYATLARINING AHAMIYATI**

*Rahmatullayeva O`g`iloy Maxmudovna
NAmDU 1 – bosqich magistranti.
Telefon: +998996964681*

Annotatsiya. Ushbu maqolada oilada farzand tarbiyasini shakllantirish jarayonida xotin – qizlarning farzand tarbiyasidaga o`rni, milliy urf – odatlar, an’analar va qadriyatlarining ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so`zlar: Tarbiya, saodat, falokat, kibr, xudbinlik, parvarda, sitam, mashvarat, fath, maqbara.

Аннотация. В статье раскрывается роль женщины и ценности детей в семье.

Ключевые слова: образование, счастье, катастрофа, гордость, эгоизм, упрек, сбор, мавзолей.

Annotation. The article reveals the role of women and values in raising children in the family.

Keywords: education, happiness, disaster, pride, selfishness, reproach, gathering, victory, mausoieum

Har bir kishi kasb – korini mukammal bilmog’i, yahshi tarbiya olmog’i va yahshi hulq- odob, fazilatlarga ega bo`lmog’i kerak. Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug’, behad buyuk ajdodlarimiz havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz va qadriyat, an’ana, milliy urf odatlarimiz bor.

Bugungi kunning o`tkir va dolzarb muammolari bizdan zamonaviy taraqqiyotning asosiy taraqqiyotning asosiy tamoyillarini har tomonlama chuqur tahlil etish bilan birga, insoniyatning yaqin – olis tarixidagi boy tajribasini ham teran idrok etishni, shu asosda amaliy xulosalar chiqarishni taqozo etmoqda, ya’ni tarix tajribasi odamzod uchun tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Hech bir mubolag`asiz aytish mumkinki, o`zbek xalqininig ko`p asrlik tarixi, milliy qadriyatlari, urf – odatlari va an`analari ham ana shunday buyuk tajribalar manbaidir.

Ming afsuski, mustamlakachilik yillarda, ya`ni milliy qadriyatlarmiz, aziz – avliyolarimiz va allomalarimizning boy me`rosi, tabarruk nomlarini xalqimiz xotirasi va yuragidan butunlay o`chirishga qaratilgan siyosat hukm surgan. Bu esa albatta o`zining salbiy holatlarini ko`rsatgan.

Shu o`rinda men Abdulla Avloniyning “*Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir*” degan fikrini ro`p mushohada qilaman.

Buyuk ma’rifatparvarning bu so`zlari asrimiz boshida millatimizning qanchalar muhim va dolzarb , bo`lgan bo`lsa, hozirgi kunda biz uchun ham shunchalik, undan ham ko`ra muhim va dolzarbdir. Chinakam oqilona ta`lim va tarbiya ongimizni ham,

xulqimizni ham o`gartiradi.

Azaldan bizning ajdodlarimiz farzad tarbiyasini o`ta nozik masala sifatida qaraganlar. Farzand tarbiyasi oilada ota va ona teng mas`ul hisoblanadi. Oilada shahslararo munosabatlarni shakllantirishda oiladai yoshi kattalarni o`rni kattadir. Ota – ona farzandiga tarbiya berish jarayonida albatta milliy qadriyatlarimizga, urf – odad an'analarimizga, islomiy va diniy qonun qoidalarimiz asosida mas'uliyat bilan yondashishlari muhimdir. Buning uchun esa ota- ona katta tajribaga ega bo`lishlari lozimdir. Hozirgi kunda ilm va Axborot va fan texnikalari shiddat bilan rivojlanayotgan davrda ota- onalardan tarbiya berish jarayonida o`ta ziyraklik talab etiladi.

Zeroki, yunon faylasufi Arastu aytganidek tarbiya uch narsaga ehtiyoj sezadi: ***iste'dodga, ilmga, mashqqa.*** Shu uch talab albatta ota- onada bo`lishi juda ham muhimdir. Ayrim oilalarda guvohi bo`lyotganimizdek, farzandga tarbiya berish jarayonida ota – onalar tomonidan tuzatib bo`lmas kanchiliklar uchrab turibdi. Bu juda ham ayanchlidir. Ya’ni farzandga milliy qadriyatlarimizni o`rgatmaslik, ya’niki kattalarga hurmat, ularga salom berish, ota onaga baland ovozda gapirmaslik kabi kundalik hayotimizda kerak bo`ladigan odatlarni o`rgatmasliklari bu juda ham salbiy holatdir. Tarbiya berish jarayonida birinchi galda o`zbekona mentalitet har bir kishining chiroyli odoblari uning maqomiga aylanishi haqida qayg’uradi.

Buyuk allomamiz Alisher Navoiy aytganidek ***“Insonning eng go`zal, eng to`g’ri va eng jiddiy me’yori hayo va odobdir.***

Ta’lim tarbiya ong mahsuli, lekin ayni vaqtida ong darjasini va uning rioji ham belgilaydigan omildir. Binobarin ta’lim – tarbiya tizimini o`zgartirmasdan bo`lmaydi. Ongni, tafakkurni o`zgartirmasdan turib, inson o`zini o`zgartira olmaydi. Insonni inson qilib yetishtiruvchi narsa – tarbiyadir.

O’zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi 64- moddasida. Ota – onalar o’z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar.

Farzand tarbiyasi ya’ni parvardasida ota –ona eng yomon hisoblangan kibr takabburklik, manmanlik, xudbinlik, parvarda tarbiya qilingan parvarishlangan sitam jabr zulm kabi salbiy illatlar singdirmaslik kerak. Afsuski bunday holatlar atrofimizda ucyhrab turibdi. Oilada milliy qadriyatlarga, urf - odatlarga sodiq qolgan holda ularga hurmat bilan qarashni o`rgatgan ota – onalar kelajakda ijobjiy e’tiroflarga ega bo`ladilar.

Jamiyat a’zoli yarmidan ko`pini tashkil qiladigan xotin – qizlar barcha zamonlarda moddiy va ma’naviy ne’matlar yaratishda erkaklar bilan teng zaxmat chekib kelganlar. Ko`hna Sharq tarixi zarvaraqlarida ayol zakovati, jasorati, karomatiyu maonati xususida ko`plab misollar keltirishimiz mumkin. Farzand tarbiyasida ayollarimiz roli juda ham muhimdir. Ayolni bilimi, zakovati, mehnati beqiyosdir. Tarixda ma’lumki buyuk olimlar, faylasuflar, katta yutuqlarga erishgan shaxslar ortida albatta ayolning ya’ni onaning o’rni beqiyosdir. Xatto Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto” da ham oila erki xotin – qizlarning jamiyatda tutgan o’rni, onaning xonadondagi mavqeyi masalalari turli o’rinlarda, har xil munosabatlар bilan maxsus qayd etilgan, izohlangan. Zardushtiylikda qiz bola tarbiyasiga alohida e’tibor berilgan. Zardusht ta’limotida har ota- ona o’z qizini balog’at yoshigacha zamonasining barcha hunarlarini bilishi, ro’zg’or ishlarini

mukammal o`rgatishi, e`tiqodda bosiq, ahloqda pokiza qilib tarbiyalashi zarur. Bu bir tomondan ona – ona ishini yengillatadi, xonadon yumushlarini hamisha saranjom, pok isrofgarchiliksiz bo`lishi ta'minlansa, ikkinchi tomondan qiz tushgan xonadonning obodonligi n ta'minlashga zamin yaratadi. Qaynota, qaynona, kuyov hurmatini qozonadi. Yangi oila mustahkamligini ta'minlaydi. Buning uchun qiz bola ham ma'naviy, ham jismoniy jihatdan barkamol bo`lmog'i lozim. Bunda onaning roli va mavqeyi yuksardir.

Shu o`rinda buyuk bobomiz Amir Temur o`zining “Temur tuzuklari” kitobida shunday deydi; “Men farzandlarimga va nabiralarimga kelin yoki kuyov tanlashda davlat siyosati darajasida yechiladigan muhim mashvarat,(majlis, kengash,maslahat) tadbir qatorida qaradim. Shuningdek amr etdimki, fath etilgan har bir mamlakatdagi sayyidlar, ulamo, mashoyih, fuzlo akobir va ulug`lar, shuningdek, yerli xalqning urf – odatlari o`z holida qolsin va avliyolar va din peshvolarining mozorlari va maqbaralariga vaqfdan mablag` ajratsinlar”. Buyuk sohibqiron bobomiz Mirzo Ulug`bekni ta'lim va tarbiyasini Bibihonimni bilim zakovatiga, go'zal hulqiga, e`tiqodiga ishonib topshirib buyuk olim qilb tarbiyalab bergani tarixdan ma'lum.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, oilani mustahkam bo`lishida ota – onaning farzandlariga bergen to`g`ri tarbiyalari juda ham muhimdir. Oilada ota – ona va farzand munosabatlariga doir muammolar haqida ko`p rivoyatlar eshitganmiz. Ota- onasini hurmat qilmagan farzand o`z farzandlaridan hurmat talab qilishi nojioiz. Hadislarimizda **“Farzandlarizga tarbiyani to`g`ri beringlar, zeroki, otalaringizga mehribon bo`linglar, shunda sizlar ham farzanlaringizdan mehr – muruvvat ko`rasiz”** deb o`rinli ko`rsatib o`tilgani bejizga emasdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati:

1. Sh.Mirziyoyev Milliy Yuksalishdan - Milliy Tiklanish Sari. Toshkent- “O`zbekison”- 2023
2. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent- “O`zbekison”- 2018
3. Rahmonjon Egamberdiyev. “Odobimiz millat ko`zgusi” “Mashrab” Namangan – 2022
4. I.Karimov “Barkamol avlod orzusi” T.1999y. “Sharq” Nashriyoti-Matbaa Konserni Bosh Tahririyyati.
5. Abdulla Jabbor “Mashrab asarlari uhun lug`at va izohlar” Farg`ona nashriyoti 2010
6. “Temur tuzuklari” Toshkent “O`zbekiston” 2015
7. Rahmonjon Egamberdiyev “Saodat sari” “Mashrab” nashriyoti - 2022